



TIL – DIL KO'ZGUSI

Bu yili 21 oktabr O'zbek tiliga Davlat tili maqomi berilganiga 30 yil to'lishi munosabati bilan O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida "Til – dil ko'zgusi" nomli badiiy, ma'naviy-ma'rifiy tadbir bo'lib o'tdi. Bebaho o'zbek tilining boy merosi, asrlar qa'ridagi qaddi va rivoji ko'ksimizni faxrga to'ldiradi. Tadbir avvalida institut rektori, professor Ibrohim Yuldashev so'zga chiqib, jonajon tilimizning boyligi, muhtaram yurtboshimizning bu borada amalga oshirayotgan islohotlari xususida gapirib o'tdilar.



O'ZDSMI – O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA MADANIYAT
INSTITUTI/dsmi.uz

Shundan so'ng, tadbirning badiiy qismi boshlandi. Institutning iste'dodli talabalarining mahoratli ijrolari sahnani to'ldirdi.

Talaba Dilmira Xo'jaqulovanning Sadoyi so'zi bilan yozilgan "Hanuz" ashulasi betakor yangradi. Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor Go'zal Xoliqulova ijrosida Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asaridan parcha yangradi.



O'ZDSMI – O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA MADANIYAT
INSTITUTI/dsmi.uz

Talaba Zuhridin Shukrullayevning “Mustahzod” jonli ijrosi sahnani larzaga keltirdi. Dilmurod Xudoyberdiyevning shoir Bobur Bobomurod qalamiga mansub “Vatanni sotdingmi, do'stim!” she'riy kompozitsiyasi nihoyatda ta'sirli yangradi.



O'ZDSMI – O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA MADANIYAT
INSTITUTI/dsmi.uz

Tadbir davomida “Ona tilim” she’rlari 20-sonli Bolalar musiqa va san’at maktabi o’quvchilari ijrosi, Mahoratli pedagog Isoqtoy Jumanov asari asosidagi “Til mashqi mashmalari”, Muhammadali Pishenbayevning qoraqalpoq tilidagi “Ana tilime” she’ri, talabalar ijrosidagi hikmatli so’zlar kompozitsiyalari ijro etildi.



O'ZDSMI – O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA MADANIYAT
INSTITUTI/dsmi.uz

Ayniqsa, bayram kechasining final qismida “Tarixiy siymolar” kompozitsiyasi, pedagog Ernazar Yorbekov ijrosida o‘qilgan “Ona tili” nomli maxsus videorolik taqdim etildi. Tadbir so‘nggida Sardor Shavkatov ijrosida “Xumori bor bu yurtning” qo‘shig‘iga barcha jo‘r bo‘ldi.



O'ZDSMI – O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA MADANIYAT
INSTITUTI/dsmi.uz

Ona tilimizning go'zal jarangi, bebaho qadri asrlar umrida
yashasin. Barcha vatandoshlarimizga bayram muborak bo'lsin!

**O'zbekiston davlat san'at
va madaniyat instituti
matbuot xizmati**